

NAMANGAN QIPCHOQ SHEVALARIDAGI AYRIM MAISHIY LEKSIKANING ADABIY TILDAN FARQLANISHI

Mamatismoilova Xanifa Xayitmirzayevna

Namangan davlat universiteti tadqiqotchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12664185>

Annotatsiya. Maqolada Namangan viloyati qipchoq shevalarida kuzatiladigan maishiy leksika birliklarining o'ziga xos xususiyatlari hamda ularning o'zbek xalq shevalariga, o'zbek adabiy tiliga munosabati masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: o'zbek xalq shevalari, lahja, leksika, maishiy leksika, dialektologik area, fonetik-fonologik belgilar, prosodika.

Аннотация. В статье описаны особенности бытовых лексических единиц, наблюдаемых в кыпчакских говорах Наманганской области, а также их отношение к узбекским народным говорам и узбекскому литературному языку.

Ключевые слова: узбекские народные говоры, диалект, лексика, бытовая лексика, диалектологическая область, фонетико-фонологические знаки, просодия.

Annotation. The article describes the features of everyday lexical units observed in the Kipchak dialects of the Namangan region, as well as their relationship to the Uzbek folk dialects and the Uzbek literary language.

Key words: Uzbek folk dialects, dialect, vocabulary, everyday vocabulary, dialectological area. Phonetic-phonological signs, prosody.

Bugungi kunda Yangi O'zbekiston sharoitida yuzaga kelayotgan keyingi o'zgarishlar, barcha sohalarida amalga oshirilayotgan tub islohotlardagi burilishlar tufayli xalq jonli tili tamoman o'zgardi. Xalq nutqida siyosat, iqtisodiyot, madaniyat va ma'rifat, texnika, sanoat, sport sohalariga oid yangidan yangi so'zlar paydo bo'ldi. Umrini o'tab bo'lganlari esa iste'moldan chiqib ketdi, chiqib ketmoqda. Xalq jonli tilidagi bu jarayonlarni yangi yaratilajak xalq so'zlari lug'atida aks ettirish shu kunning eng muhim vazifalaridan biri sifatida qo'yilmoqda. Bu – masalaning bir tomoni. Ikkinchidan, respublikamizning har bir hududi (viloyat, tuman, shahar, qishloqlar) o'ziga xos, bir-biridan ma'lum darajada farq qiluvchi so'zlashuv an'anasiga va shevalarga ega¹. Bu areallar tilini o'rganish esa o'z-o'zidan adabiy tilimiz istiqboli va taraqqiysiga xizmat qiladi.

Namangan qipchoq shevalariga xos ayrim maishiy leksikaning adabiy tildan quyidagi jihatlariga ko'ra farqlanishi kuzatiladi:

1. Shevada fonetik jihatdan kuchli o'zgarishga uchrab, o'z shaklini o'zgartirgan maishiy so'z va hosila so'zlar: *shuytip* – shunday qilib, *kelāma?* – *keladimi?*, *borāma?* – boradimi? *keganeken* – kelgan ekan, *qoganeken* – qolgan ekan, *unaqames* – unaqa emas, *ishqip* – ishqilib, *buzo'(o)v* – buzoq, *jizg'on // jizg'in // jizg'inak* (ko'ch. jazirama oftobda yoki o't tig'ida qovjiramoq, qaqramoq, kuymoq²) kabi.

2. Adabiy tilda uchramaydigan, faqat shevaga xos maishiy so'z – atamalar: *hayāt* – tomorqa (hovli dan tashqari yer), *mārdāk* – makkajo'xorining doni olinganidan so'ng qolgan asos qismi, *azg'irdi* – to'g'ri yo'ldan adashtirmoq, *halvāli* (alvali) – nordon ta'mli olcha mevasi va o'simlik daraxti, *katata* – bobo, *po'pa//buvak* – chaqaloq, go'dak, *palla // uvuz* – og'iz suti, *jo'nnon*

¹ Madvaliyev A. O'zbek terminologiyasi va leksikografiyasi masalalari. – Toshkent, 2017.

² Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 1-том. – М. – Л.: Рус тили, 1981.

– obi non (xamirturush solib, oshirilgan xamirdan tayyorlanib hovli tandirida pishirilgan non), *beshlik* – (fors-toj.: panshaxa), *po‘panak* (shevada omonim) – 1) ekin maydonidagi egatlardan farqli ravishda keyingi maydonga katta suv olib o‘tish uchun alohida qazilgan kattaroq ariq; 2) mog‘or (non po‘panagi (mog‘ori), *ardonabek // eddanavek* – kerik va kekkaygan odam, *haliginaqa* – anaqa kabi.

3. Adabiy til va shevalarda shaklan bir xil bo‘lib ma‘nosida farqi bo‘lgan maishiy so‘z – atamalar: *tirinka* – metaldan ishlangan suyuq va quyuq ovqatlar uchun chuqur va sayoz idish turi, *chini* – chinni kosa; *o‘ra* – qishda sabzavot saqlovchi joy; *xalta* – landovur odam, *kapsan* – qishloq ma‘murlari, ruhoniylari, shuningdek, qishloqqa xizmat qiluvchilarga (mas. sartarosh, tegirmonchi va sh.k.ga) mahsulot, don bilan to‘lanadigan haq mazmunidagi bu so‘z lahjada ma‘no torayishiga uchrab, har qanday ulush mazmunini beradi. *Quloq* – bir ariqdan ikkinchi bir ariqqa suv olinadigan joy; *supa* – ariqdan suv olinadigan zinali joy, *vahvak* omonim: 1) hovliqma odam; 2) hasharot turi; *sopol* – sopoldan tayyorlangan idish turlari, *paqir* – chelak, *shoti* – narvon, *opa* – ona, *ake//aka* – ota, *odosho‘ldi // odo‘ldi* – tugadi kabi.

O‘zbek adabiy tili doimiy rivojlanishda, taraqqiyotda. Uning rivojlanishida asosiy manba vazifasini xalq so‘zlashuv nutqi – shevalar o‘taydi. Xalq nutqida bir narsaning, belgining, holatning, harakatning nomi turlicha bo‘lishi mumkin. Bu tabiiy hol. Zero, o‘zbek tilining lahja va shevalari nafaqat fonetik va morfologik jihatdan, balki leksik jihatdan ham farqlanadi. Shevalararo va adabiy til leksikasidagi farqli birliklar til taraqqiyoti uchun birlamchi ahamiyatga ega³.

Ko‘rinadiki, maishiy etnik-tarixiy lingvistik jarayon Namangan qipchoq shevalari leksik-semantik tizimida chuqur iz qoldirgan. Natijada, qipchoq lahjasi vakillari nutqida o‘zbek tilining boshqa lahjalaridan farqli va o‘xshash o‘ziga xos xususiyatlar vujudga kelgan. Yuqoridagi kabi tasviriy tahlillar qipchoq shevalarini o‘rganishdagi ayrim tomonlarni ochib beradi, xolos. Shuning uchun ham bu kabi xususiyatlarni aniqlash, ularning yuzaga kelish sabablarini, ijtimoiy-maishiy sharoit va vaziyatlarni o‘rganishni kuchaytirish milliy tilning ichki asosda rivojlanishini tadqiq etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma‘lumki, hozirgi o‘zbek adabiy tili imlo va talaffuz me‘yorlarini, fonetik, leksik va grammatik tarkibini bir tizimga solish Toshkent – Farg‘ona shevalariga asoslangan. Biroq ayrim hollarda bu shevalar manba-materiali adabiy til me‘yorlariga mos kelmay qolayotgan o‘rinlarni ham uchratyapmiz. Ayniqsa, bunday holatlar adabiy nutq talab etiladigan respublika va mahalliy teleradiokompaniyalarning ko‘rsatuv va eshittirishlarida, zamonaviy o‘zbek kinofilmlari va xorijiy film dublyajlarida, ayrim gazeta, jurnal materiallari hamda turli jamoat tadbirlarida ko‘zga tashlanib qolmoqda. Bu esa, “adabiy tilning o‘zbek shevalararo me‘yorlasha borishi asta-sekin dialektal nutqni qisib chiqaradi, og‘zaki so‘zlashuv nutq doirasiga ham kirib boradi” tarzida keltirilgan fikrlarning aksini ko‘rsatayotgandek, nazarimizda.

Biz ko‘p vaqt davomida zamon zayli bilan hukmoron til – rus tili ta‘sirida hayot kechirdik. Bir so‘z bilan aytganda o‘z vaqtida “tili o‘tkir” va zamonsoz “ilm egalari” ning “butun mamlakat yaqin orada bir yagona tilda muloqot qiladi, sheva va dialektlarga ehtiyoj qolmaydi” qabilidagi fikrlari asosida “shijoat ila” ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirildi.

Bu borada o‘tgan asrning 30-yillarida o‘zbek urug‘larining 92 ta ekanligini qayd etib, shaxsan 70 ga yaqin urug‘ va ularning shevalarini o‘rganib chiqqan, ilmiy faoliyatida qipchoq lahjasiga alohida to‘xtalib, ulardan 40 tasining, ya‘ni qirq, ming, yuz, nayman, qipchoq, boshqirt, uyg‘ur,

³ Madvaliyev A. O‘zbek terminologiyasi va leksikografiyasi masalalari. – Toshkent, 2017.

qo'ng'iroq, laqay va boshqa nomlarni birma-bir keltirib o'tgan o'zbek tilshunoslari, shevashunos va etnologlari G'ozim Olim Yunusov⁴, Xudoyberdi Doniyorov⁵ mehnatlari tahsinga loyiq.

Respublikamizning ko'pgina viloyat, tuman, qishloqlari aholisi uzoq zamonlardan buyon dehqonchilik bilan bir qatorda chorvachilik bilan ham shug'ullanib keladi. Shuning uchun qipchoq lahjasiga xos maishiy leksikada ham it, ot va boshqa hayvonlar bilan bog'liq so'zlar va iboralar talaygina. Bu azaliy, hayotiy holat xalq so'zlarida o'z aksini topgan. Lahjada *molfahm, mollaygan, molboqar, mollik qilmoq, molyoyar, molyig'ar* (hudud aholisi nutqida payt ma'nosini ifodalaydi); *otjag', ottepti, otbashara, otkalla, ottepgur, otto'rva, otyurak, oto'yin, otqorin; echkisoqol, qo'yko'z; itmalay, itpishiq, itazob, itamal, itbaliq, itpakana, itdum, ityotish, ityoqa, itirjin, ityiqilish, itko'z, itmijoz, ittalash, itfe'l, itxona, itchivin, itchilik, itqarash, it-mushuk*⁶ kabi xalqona faol til birliklari shular jumlasidan. Zikr etilgan so'zlarning barchasi to'liq ma'noda xalq so'zlari maqomiga ega. Ularning ma'nolari ham turlicha.

Eng ahamiyatli jihati, qipchoq shevalaridagi maishiy leksikaga oid birliklarning qarluq lahjasi shevalarga ham o'tishidir. Yoki buning aksini ham kuzatish mumkin. Namangan hududida, shu jumladan, shu shevada gaplashuvchi boshqa viloyatlarda qipchoqlarning ham qarluqcha talaffuzda so'z qo'llashga, gap shaklini tuzishga va tanlashga o'tib borayotganining bevosita guvohi bo'lyapmiz. Bunday lisoniy hodisalar Namangan va boshqa hudud qipchoq va qarluq lahjalari lug'at tarkibida umumiy o'xshashliklarni saqlab qoladi, ular esa adabiy til bilan bevosita aloqadorlik hosil qiladi. Bu, albatta, har bir davrda kuzatiluvchi va o'zgarib turuvchi jarayon hisoblanadi. Masalan, ota → **dada**, opa → **aba** yoki **aya**, jesta → **pochcha, jengacha** → yanga, **chini-kosa** kabi.

Qipchoq shevasida adabiy tilga va shahar shevalariga nisbatan arabcha, forsha va tojikcha so'zlar kamroq. Yana ulardan bir farqi bu o'zlashgan so'zlar aksar fonetik o'zgarishga uchragan holda ishlatiladi.

Shevada	Adabiy tilda	Shevada	Adabiy tilda
<i>tuvri//to'rri</i>	to'g'ri	<i>hovo</i>	havo
<i>Örayim</i>	Ibrohim	<i>nāyati</i>	nihoyat
<i>Ablajan</i>	Abdullajon	<i>mohovat</i>	muhabbat
<i>Ablahäy</i>	Abdulhay	<i>midāris</i>	mudarris
<i>chiroq</i>	elektr lampasi	<i>xish</i>	g'isht
<i>diyqan</i>	dehqon	<i>mamadāna</i>	mahmadona
<i>abdasta</i>	objo'sh	<i>qurvon</i>	qurbon
<i>po'stirma</i>	po'st dumba	<i>dostirxon</i>	dasturxon
<i>shāār</i>	shahar	<i>opto'v,</i>	oftob
<i>ökul</i>	vakil	<i>tilbizo'r</i>	televizor
<i>dostiқ</i>	yostiқ	<i>ko'ynim</i>	ko'nglim
<i>chāch</i>	soch	<i>palakat</i>	falokat
<i>chāchälä</i>	sochqich	<i>mo:rip</i>	maorif
<i>chechmoq</i>	yechmoq	<i>buvdoy</i>	bug'doy

⁴ Юнусов Ф.О. Ўзбек лаҳжаларининг таснифида бир тажриба. – Тошкент: Ўқувўздавнашр, 1936.

⁵ Дониёров Х. Эски ўзбек адабий тили ва қипчоқ диалекторлари. – Тошкент, 1976. – 139 б.; Қипчоқ диалектларининг лексикаси. – Т.: Фан, 1979. – 158 б.

⁶ Madvaliyev A. O'zbek terminologiyasi va leksikografiyasi masalalari. – Toshkent, 2017. – B. 125-128

Misollardan ko'rinadiki, etnik tarixiy lingvistik jarayon Namangan qipchoq shevalari leksik, fonetik va semantik tizimida chuqur iz qoldirgan. Qipchoq lahjasida o'zbek tilining boshqa lahjalaridan farqli o'ziga xos xususiyatlar vujudga kelgan.

Tillar o'zaro hamkorlik, bir-birini boyitish yo'li bilan rivojlanib bormoqda. Faqat qardosh turkiy tillar emas, balki boshqa tillar ham turli yo'llar bilan bir-birini boyitish, bir-biri bilan oziqlanishga harakat qiladi. Xuddi shu sababli ona tilimizga turli tarixiy davrlarda so'zlar, atamalar va ular tarkibida qo'shimchalar, grammatik xususiyatlar o'zlashgan. O'z navbatida o'zbek tilining ham boshqa tillarga samarali ta'siri borligi sezilib turadi. Chunki A.Qodiriy aytganidek, "Tillar bir-birlaridan qarz olmasdan yashay olmaydilar".

Movarounnahrda eng qadimgi xalqlardan biri hisoblangan o'zbeklar o'zining ko'p asrlik hayoti davomida boy adabiyot va madaniyatni vujudga keltirdi. Ular o'zining ona tili – o'zbek tilini asrlar davomida ardoqlab va taraqqiy ettirib kelgan. O'zbek tili hamda uning lahja va shevalari jamiyat taraqqiyoti va xalqlarning turlicha aloqa munosabatlari tufayli vaqt o'tishi bilan o'zgarib, taraqqiy etgan va turli shakllarga ega bo'lib kelgan. Bu fikr taraqqiyotning so'nggi davrlarida vujudga kelgan milliy tilga ham bevosita aloqadordir⁷.

Qipchoq lahjasi vakillari nutqida ham o'zlashgan so'zlarning ayrimlari qayta ishlanib bu shevalarning leksik-stilistik tomondan rivojlanishida, rang-barangligini orttirishda imkoniyat beradi⁸.

Masalan, *o'ris* – rus (*o'rischa kiyingan* – yevropacha kiyingan); qitay – xitoy (qitaymisan? – tushunmaydigan odamga nisbatan ishlatiladi); *mechal, pechal* – yetim (asosan hayvonlarga nisbatan ishlatilib, yetim qo'zi yoki yetim buzoq mazmunini beradi); *po:nniy* – butunlay, to'la-to'kis, batamom, to'la; *xemmunut* – oz, qisqa vaqtda va boshqalar.

Albatta, Namangan areal qipchoq lahjalari so'zligining asosini, boshqa qipchoq shevalari kabi, asl turkiy, asl o'zbekcha so'zlar tashkil etadi. Lahjadagi so'zlar sohalar bo'yicha adabiy til va boshqa lahjalar bilan umumiylik kasb etsa-da, ba'zan ularning o'ziga xos jihatlari ham ko'zga tashlanib qoladi.

Qipchoq lahjasining tarmoq leksikasidagi eng boy va o'ziga xos atamalaridan biri chorvachilik atamalaridir. Ulardan ko'pchiligi, asosan, shu shevalar orqali adabiy tilga kirgan va ular maxsus atama sifatida ishlatilmoqda. Ammo ayrimlari adabiy tilga kirib ulgurmagan. Ular adabiy tilga olib kirilsa, uning imkoniyati yanada kengaygan bo'lar edi.

Masalan, qipchoq lahjasida uchrovchi chorvachilikka oid quyidagi so'zlar ma'nosi o'ziga xoslik kasb etadi:

Ko'lo'k. Qo'y va echking to'rt oyog'ini birlashtirib bog'lash.

Ko'gan. Qo'y va echkilarni bir ipga tizib bog'lovchi maxsus arqon.

Uyur. Yilqilarning to'dasi.

Qilo'v. Qoramolda, ko'proq buzoqlarda uchraydigan kasallik nomi. Bu kasallik molning tilida bo'ladi.

Uyälämaq. Mol va yilqilarning yomon yotib qolib, tura olmay qolish holati.

Chuv. Sigirning buzoqlagan vaqtida (buzoqdan keyin) va qo'y-echkilarning qo'zilagan vaqtida boladan keyin tushadigan organizmining bir qismi.

⁷ Murodova N. Allaberdiyev A. Ўzbek dialektologiyasi . Ma'ruzalar matni. Navoiy . 2008.

⁸ Тўйчибоев Б., Ҳасанов Б. Ўзбек диалектологияси. – Тошкент: А.Қодирий номидаги халқ ме'роси, 2004. – Б. 96.

Xullas, Namangan qipchoq shevalari arealida bu kabi adabiy tilda mavjud o'zgacha ifodasiga ega so'zlar yoki adabiy tilda mavjud bo'lmagan maishiy leksik birliklarning miqdori boshqa sohalarda ham juda ko'p. Ularni aniqlash va tahlilga tortishdan asosiy maqsad, milliy tushunchalarni ifodalovchi xalqning jonli – iste'moldagi tilidan so'zlarni muvofiqlashtirib, adabiy tilni boyitish va ulardan oqilona foydalanishni yo'lga qo'yish chora-tadbirlarini qat'iy belgilash hisoblanadi. Haqiqatdan ham, xalq jonli tili – shevalarda qadimiy yozma yodgorliklarda uchrovchi lisoniy birliklardan ham qadimiyroq til unsurlari va birliklari mavjudki, ularni mukammal o'rganish tilimiz taraqqiyotiga munosib hissa bo'lib qo'shiladi.